

## TARBIYA JARAYONIDA MULTIMEDIYA VOSITALARINI QO'LLASH MUAMMOLARI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Pedagogika yo'nalishi 2-  
kurs magistranti Qumriyeva Dilobar Jamliddin qizi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarbiya jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati, ularning ta'lim va tarbiya sifatiga ta'siri hamda o'quvchi shaxsining ma'naviy va intellektual rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, tarbiyaviy jarayonni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitishning samarali yo'llari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, multimedia, axborot texnologiyalari, ta'lim sifati, innovatsion yondashuv.

**Аннотация:** В статье рассматривается значение использования мультимедийных средств в процессе воспитания, их влияние на качество образования и воспитания, а также роль в духовном и интеллектуальном развитии личности учащегося. Отмечены эффективные методы интеграции современных технологий в воспитательный процесс.

**Ключевые слова:** воспитание, мультимедиа, информационные технологии, качество образования, инновационный подход.

**Annotation :** This article highlights the importance of using multimedia tools in the educational and upbringing process, their impact on the quality of education, and their role in the moral and intellectual development of students. It also discusses effective methods of integrating modern technologies into the upbringing process.

**Keywords:** modern information and communication technologies, media education, media technology, media literacy, mass media, media socialization, mediapedagogy.

### KIRISH

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayoniga joriy etilganda so'ng multimedia vositalaridan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Media ta'lim vositalari ta'lim muassasalari tomonidan keng qo'llaniladi. Ushbu o'rganish usuli keng tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi va foydalanuvchilarga ularni an'anaviy o'qitish usullariga qaraganda kamroq vaqt ichida o'rganish imkonini beradi. Tarbiya jarayonida multimedia vositalari orqali o'quvchilarning fikrlash doirasi kengayadi, estetik didi, axloqiy qadriyatlari va ma'naviy dunyosi boyiydi. Shu bois, pedagoglar multimedia vositalarini tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida qo'llashlari zarur.

### **ASOSIY QISM**

Bugungi kunda axborot texnologiyalari hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib kelmoqda. Ta'lim va tarbiya jarayoni ham bundan mustasno emas. Zamonaviy pedagogik jarayonda multimedia vositalaridan foydalanish nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularning tarbiyaviy sifatlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Multimedia vositalari o'quv jarayonini yanada jonli, qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Multimediali texnologiya bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning ko'plab usullaridan foydalanishga qodir.

Multimedaning eng muhim hususiyati interfaollik-axborot muhitida ishlash

jarayonida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirlik hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tarbiyaviy faoliyatda ko'plab o'zgarishlarga olib keldi.

Kompyuterlar va internet ta'limda va albatta tarbiyada dars jarayonlarida interfaol foydalanish va multimedia dasturlarini qo'llash, turli xil multimedia dasturlarini qo'llash, turli xil o'rganish uslublariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun vizual va eshitiladigan tarzda boyitilgan elektron materiallar taqdimotini osonlashtiradi. Aytish mumkinki kompyuterli muhitda o'rganish,

individual o'rganish tezligiga ko'proq mos keladi va eslab qolishga yordam beradi.

So'ngi yillarda o'qitish muhitida tez-tez qo'llanadigan axborot va o'quv manbalaridan biri multimedia resurslaridir.

Bugungi kun avlodi har tomonlama barkamol va yetuk bo'lishi uchun jamiyki shart-sharoitlar mavjud. Ammo hammamizga ma'lumki barkamollik tushunchasini biz tarbiyasiz tariflay olmaymiz, zero tarbiya-buyuk: u orqali insonning taqdiri hal qilinadi. Shunday ekan biz pedagoglar bu buyuk jarayonga yuqori ma'suliyat bilan qarashimiz hamda tarbiyalashda jamiyki usullar va metodlardan samarali foydalana olishimiz kerak bo'ladi.

Multimedia vositalarining tarbiyaviy afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quvchi diqqatini uzoq muddat ushlab turadi;**
- mavzuni eslab qolish darajasini oshiradi;**
- o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;**
- tarbiyaviy mavzularni real hayotiy misollar bilan boyitadi.**

Shuningdek, pedagoglar uchun multimedia vositalari metodik yordamchi sifatida xizmat qiladi. Masalan, PowerPoint taqdimotlari, interaktiv dars platformalari (Kahoot, Nearpod, Canva) orqali o'qituvchi tarbiyaviy mashg'ulotlarni zamonaviy shaklda tashkil etishi mumkin.

Biroq, multimedia vositalaridan foydalanishda muhim shartlardan biri — maqsadga yo'naltirilganlikdir. Har bir multimedia materiali pedagogik maqsadga xizmat qilishi, yosh xususiyatlariga mos bo'lishi va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi lozim.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, texnologiyaning rivojlanishi o'quv ta'lim jarayoniga innovatsiyalar olib keldi va multimediali o'quv muhitini rivojlanishiga zamin yaratdi. Hozirgi kunda har bir kishining ish faoliyatida

doimiy ravishda multimedidan foydalanish ehtiyoji mavjud. Multimedia texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish ta'lim sifatini hamda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, tarbiyada esa tasirchanlikni oshiradi va o'quvchilarning dunyo qarashini shakllashtiradi.

Tarbiya jarayonida multimedia vositalarini qo'llash o'quvchilarning ma'naviy, intellektual va estetik rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. U nafaqat darslarni zamonaviylashtiradi, balki tarbiyaviy jarayonni ham interaktiv, ijodiy va samarali qiladi. Shunday ekan, pedagoglar multimedia texnologiyalarini to'g'ri tanlab, ularni tarbiya jarayoniga maqsadli va tizimli tarzda joriy etishlari muhimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori.
2. Hasanboeva O. "Pedagogika asoslari". – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Jo'rayev M. "Ta'limda axborot texnologiyalarining o'rni". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Askarovich, M. S., Uljaevna, U. O., & Inomjohnovna, O. N. (2020). Applying case study-method in teaching chemistry. *Проблемы современной науки и образования*, (3 (148)), 62-64.